



Received: February 22, 2026
Accepted: March 24, 2026
Available online: March 25, 2026

Farida Ne'matova

Katta o'qituvchi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Farida Nematova

Senior Lecturer
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: feyakahharova@gmail.com
ORCID iD: 0009-0003-7954-400X

XALQARO IQTISODIY YOZISHMALAR TARJIMASINING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillari misolida xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasining lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ishbilarmonlik xatlari, shartnomalar, rasmiy elektron yozishmalar hamda iqtisodiy hujjatlarda qo'llaniladigan lingvistik birliklarning terminologik, uslubiy va kommunikativ jihatlari o'rganiladi. Shuningdek, mazkur birliklarning pragmatik maqsadni ifodalashdagi roli hamda tarjima jarayonida ularni moslashtirish usullari yoritiladi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi xalqaro iqtisodiy yozishmalar matnlarining lingvistik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvopragmatik muammolarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari xalqaro iqtisodiy yozishmalarni lingvistik jihatdan o'rganishning nazariy asoslarini yoritish, ushbu soha matnlariga xos terminologik birliklar, rasmiy nutq qoliplari va barqaror birikmalarni aniqlash, ularning ingliz va o'zbek tillarida ifodalanish xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish hamda tarjimada pragmatik moslikni ta'minlash usullarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, lingvopragmatik, semantik va funksional tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi ingliz va o'zbek tillaridagi xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida pragmatik moslikni ta'minlashning lingvistik mexanizmlarini qiyosiy asosda aniqlash hamda rasmiy iqtisodiy diskursda qo'llaniladigan

A LINGUOPRAGMATIC STUDY OF THE TRANSLATION OF INTERNATIONAL ECONOMIC CORRESPONDENCE

ABSTRACT

This article provides a comparative analysis of the linguopragmatic features of translating international economic correspondence using examples from English and Uzbek. The study examines the terminological, stylistic, and communicative characteristics of linguistic units employed in business letters, contracts, official electronic correspondence, and other economic documents. It also explores the role of these units in expressing pragmatic intentions and discusses the strategies used to adapt them in the translation process.

The main objective of the research is to identify the linguistic and pragmatic characteristics of international economic correspondence in English and Uzbek and to analyse the linguopragmatic challenges encountered in translation. To achieve this aim, the study outlines the theoretical foundations for the linguistic investigation of economic correspondence, identifies the terminological units, formal discourse patterns, and formulaic expressions typical of this genre, comparatively analyses their realization in both languages, and determines strategies for ensuring pragmatic equivalence in translation.

The research employs descriptive, comparative-typological, linguopragmatic, semantic, and functional methods of analysis. The novelty of the study lies in its comparative identification of the linguistic mechanisms that facilitate pragmatic equivalence in the translation of international economic correspondence and its systematic account of the functional properties of terminological and formulaic units used in formal

terminologik va formulaik birliklarning funksional xususiyatlarini tizimli ravishda yoritib berish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi iqtisodiy yozishmalarda pragmatik maqsad asosan sintaktik va modal vositalar orqali ifodalansa, o'zbek tilida ushbu maqsad ko'proq leksik va formulaik birliklar orqali amalga oshiriladi. Bu esa tarjimada funksional yondashuvni qo'llashni hamda lingvopragmatik moslikni ta'minlash uchun turli strategiyalardan foydalanishni talab etadi.

Xulosada xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasi murakkab lingvopragmatik jarayon bo'lib, u tarjimondan nafaqat yuqori darajadagi til kompetensiyasini, balki iqtisodiy diskurs va rasmiy kommunikatsiya me'yorlarini chuqur bilishni talab etadi. Mazkur tadqiqot natijalari amaliy tarjimashunoslikni rivojlantirish hamda xalqaro iqtisodiy kommunikatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro iqtisodiy yozishmalar, iqtisodiy tarjima, lingvopragmatik tahlil, rasmiy uslub, terminologiya, pragmatik moslik, formulaik birlik, pragmatik maqsad.

KIRISH

Globalashuv jarayonining jadallashuvi va xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayib borishi turli mamlakatlar o'rtasida rasmiy iqtisodiy yozishmalar hajmining ortishiga sabab bo'lmoqda [Guriyeva, 2003; 12; Bondi, 2010; 45]. Xalqaro iqtisodiy yozishmalar ishbilarmonlik xatlari, shartnomalar, kelishuvlar, tender hujjatlari, moliyaviy hisobotlar hamda rasmiy elektron yozishmalarni o'z ichiga olib, ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim kommunikativ vositasi hisoblanadi [Anderson, 2006; 33; Shchekina, 2001; 18]. Ushbu turdagi matnlar aniqlik, rasmiylik va mantiqiy izchillikni talab qilishi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi [Kazakova, 2012; 27]. Xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasi alohida mas'uliyatni talab etuvchi jarayon bo'lib, unda lingvistik xatoliklar nafaqat kommunikativ uzilishlarga, balki iqtisodiy va huquqiy muammolarga ham olib kelishi mumkin [Apalat, 1999; Safina, 2002]. Shu bois iqtisodiy yozishmalarni tarjima qilishda terminologik aniqlik, rasmiy uslub me'yorlariga rioya qilish hamda pragmatik maqsadni to'g'ri yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi [Kazakova, 2012; Vereshchagin & Kostomarov, 1990]. Ayniqsa, ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimada iqtisodiy diskursning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurati dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda [O'Halloran, 1999].

Bundan tashqari, zamonaviy tarjimashunoslikda tarjima faqat bir til birliklarini boshqa til vositalari bilan almashtirish jarayoni sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi pragmatik faoliyat sifatida talqin etilmoqda.

economic discourse.

The findings indicate that pragmatic intentions in English economic correspondence are predominantly conveyed through syntactic and modal devices, whereas in Uzbek they are more often expressed through lexical and formulaic units. These differences necessitate the adoption of a functional approach and the use of diverse translation strategies to achieve linguopragmatic equivalence. The study concludes that translating international economic correspondence is a complex linguopragmatic process requiring both advanced linguistic competence and a thorough understanding of economic discourse and formal communication conventions.

Key words: international economic correspondence, economic translation, linguopragmatic analysis, formal style, terminology, pragmatic equivalence, formulaic unit, pragmatic intention.

J.Mandeyning ta'kidlashicha, tarjimani kommunikativ akt sifatida o'rganish matnning yaratilish maqsadi, adresatga yo'naltirilganligi hamda qabul qiluvchiga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilish imkonini beradi [Mandey, 2016]. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida matnning illokutsion maqsadi, institutsional xususiyati, kommunikativ vazifasi hamda adresat omilini hisobga olgan holda lingvopragmatik tadqiqotlarni olib borish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning amaliy zarurati ham bugungi globallashuv sharoitida tobora ortib bormoqda. Xalqaro savdo, investitsiya faoliyati va korporativ boshqaruv jarayonlarida qo'llaniladigan hujjatlar tarjimasidagi noaniqlik yoki pragmatik nomuvofiqlik tomonlar o'rtasida tushunmovchiliklar, moliyaviy yo'qotishlar hamda huquqiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. J.Haus tarjima sifatini baholashda matnning funksiyasi, registri va kommunikativ maqsadini saqlab qolish muhim ekanligini ta'kidlab, pragmatik ekvivalentlikni sifatli tarjimaning asosiy mezonlaridan biri sifatida e'tirof etadi [Haus, 1997, 2015]. Shu sababli iqtisodiy yozishmalar tarjimasida semantik moslik bilan bir qatorda funksional-pragmatik muvofiqlikka erishish ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va biznes tuzilmalarida rasmiy kommunikatsiyaning aniqligi hamda tushunarligiga bo'lgan talabning ortib borayotgani mazkur tadqiqotning zaruratini yanada kuchaytiradi. ISO 24495-1:2023 xalqaro standartida qayd etilishicha, samarali kommunikatsiya adresatga zarur ma'lumotni oson topish, uni to'g'ri tushunish va amaliyotda qo'llash imkonini berishi lozim. Ushbu tamoyillar iqtisodiy yozishmalar tarjimasiga ham tatbiq etilib, tarjima qilingan matnning adresat tomonidan to'g'ri idrok etilishi, uning funksional samaradorligi hamda kommunikativ maqsadining saqlanishini ta'minlashni talab etadi. Bu esa iqtisodiy matnlarni lingvopragmatik jihatdan tadqiq etishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mazkur muammoning yana bir muhim jihati iqtisodiy yozishmalarda qo'llaniladigan nutq strategiyalari va xushmuomalalik tamoyillarining tarjimada qay darajada aks ettirilishi bilan bog'liqdir. Xalqaro iqtisodiy yozishmalar turli madaniyat vakillari o'rtasidagi institutsional muloqot shakli bo'lib, unda iltimos qilish, taklif bildirish, rad etish, ogohlantirish hamda muzokara olib borish kabi nutq aktlari muayyan pragmatik maqsadni amalga oshiradi. P.Braun va S.Levinsonning xushmuomalalik nazariyasiga ko'ra, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqei, o'zaro masofa va kommunikativ vaziyat nutq vositalarini tanlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi [Brown & Levinson, 1987]. Shu bois xalqaro iqtisodiy yozishmalarni tarjima qilishda mazkur omillarni hisobga olish nafaqat matn mazmunining adekvat yetkazilishini, balki ishbilarmonlik munosabatlarining barqarorligi va rasmiy muloqot etiketining saqlanishini ham ta'minlaydi. Bu esa ingliz va o'zbek tillaridagi iqtisodiy yozishmalarni lingvopragmatik nuqtayi nazardan qiyosiy o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy tarjimashunoslikda iqtisodiy matnlar tarjimasida masalalari, xususan, rasmiy yozishmalarning lingvistik va pragmatik jihatlari turli tadqiqotlarda yoritilgan bo'lsa-da, ingliz va o'zbek tillari misolida xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasining lingvopragmatik xususiyatlarini kompleks tarzda o'rganish ehtiyoji saqlanib qolmoqda

[Adolphs & Carter, 2007; Nerubenko, 2013]. Bu holat iqtisodiy yozishmalarda qo‘llaniladigan til birliklarining nafaqat ma‘no, balki kommunikativ vazifa nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinishini taqozo etadi [Taylor, 2002; Saussure, 2000].

Mazkur maqolada xalqaro iqtisodiy yozishmalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va pragmatik muammolarni aniqlash, rasmiy iqtisodiy nutqqa xos bo‘lgan terminologik birliklar, nutq qoliplari va barqaror birikmalarning ingliz va o‘zbek tillarida ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilish asosiy vazifa etib belgilangan. Ushbu tadqiqot natijalari iqtisodiy yozishmalar tarjimasini takomillashtirish, shuningdek, amaliy tarjimashunoslik va kasbiy tarjimonlar tayyorlash jarayoniga ilmiy-amaliy hissa qo‘shishga xizmat qiladi.

Xalqaro iqtisodiy yozishmalar ham maxsus maqsadlar uchun til doirasida shakllangan kommunikativ hodisa bo‘lib, unda til birliklari, avvalo, axborotni aniq, qisqa va huquqiy jihatdan muvofiq tarzda yetkazish vazifasini bajaradi [Guryeva, 2003; Skandera, 2007]. Iqtisodiy yozishmalar matnlari, xususan, shartnoma bandlari, taklif xatlari, kafolat xatlari, hisob-kitob hujjatlari hamda rasmiy elektron yozishmalar kabi janrlarda leksik birliklar nominativ vazifa bilan bir qatorda, funksional-semantik va pragmatik vazifani ham faol amalga oshiradi [Bondi, 2010]. Boshqacha aytganda, bu turdagi matnlarda so‘z va birikmalar nafaqat narsa-hodisalarning nomini beradi, balki taraflarning majburiyati, javobgarligi, shart-sharoitlari va kelishuvning huquqiy mezonlarini belgilovchi “me‘yoriy signallar” sifatida ham xizmat qiladi [Searle, 1969; Austin, 1962].

Xalqaro iqtisodiy yozishmalarning til tizimida rasmiy uslubning ustuvorligi ularning sintaktik va leksik qatlamida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, ingliz tilidagi rasmiy yozishmalarda modal fe‘llar (shall, must, may), passiv konstruktsiyalar, nominalizatsiya hamda standart qoliplarning keng qo‘llanishi matnning normativligini kuchaytiradi [Crystal, 2003; Halliday, 1994]. O‘zbek tilida esa mazkur normativlik ko‘pincha rasmiy fe‘l shakllari (“amalga oshiriladi”, “taqdim etiladi”, “nazarda tutiladi”), otlashgan birliklar, muayyan qolip iboralar (“mazkur”, “yuqoridagilarga asosan”, “tomonlar kelishib oladilar”) hamda mantiqiy-izchil sintaktik tuzilmalar bilan ifodalanadi [Abduazizov, 2010; Yo‘ldoshev, 2020]. Demakki, xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida rasmiy registri saqlash masalasi faqat “tilni o‘zgartirish” emas, balki diskurs me‘yorlarini tiklash va kommunikativ vazifani adekvat yetkazish bilan bog‘liq [House, 2015; Bhatia, 1993].

Iqtisodiy yozishmalar tarjimasida terminologik tizim alohida o‘rin egallaydi. Iqtisodiy terminlar alohida birlik sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan tizim elementlari sifatida faoliyat yuritadi va ular paradigmatic hamda sintagmatik munosabatlar asosida shakllanadi [Abdullayeva, 2025]. Zero, terminlar iqtisodiy voqelikning konseptual “tayanchi” bo‘lib, ulardagi semantik aniqlik har qanday xatolikning oldini oladi [Cabr e, 1999; Newmark, 1988]. Shu bilan birga, iqtisodiy matnlarda sinonimik birliklar ham muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy terminlar sinonim bo‘lsa-da, ular kontekst va uslubga ko‘ra farqlanadi [Abdullayeva, 2025]. Shu ma‘noda, xalqaro iqtisodiy yozishmalardagi *invoice*, *letter of credit*, *liability*, *warranty*, *penalty*, *delivery terms* kabi birliklar o‘zbek tilida

muayyan standart muqobillar bilan berilishi, ularning semantik hajmi va huquqiy-korporativ konnotatsiyasi saqlanishi zarur [Kazakova, 2012; Safina, 2002]. Bunda tarjimon faqat lug‘aviy moslikka tayanib qolmasdan, terminning qo‘llanish sohasini, hujjat janrini va matnning pragmatik maqsadini hisobga olishi lozim, chunki bir xil leksema turli kontekstlarda turlicha huquqiy-ma‘no yuklamasiga ega bo‘lishi mumkin [Nord, 1997].

Shuningdek, xalqaro iqtisodiy yozishmalarda barqaror birikmalar va kollokatsiyalar yuqori darajada standartlashgan bo‘lib, ular rasmiy matnning “tarkibiy qolipi”ni belgilaydi [Sinclair, 1991; Moon, 1998]. Masalan, ingliz tilidagi *to meet the deadline, to comply with the requirements, to be liable for, subject to, in accordance with* kabi kollokatsiyalar o‘zbek tilida *muddatga rioya qilish, talablarga muvofiq bo‘lish, javobgar bo‘lish, ... sharti bilan, ...ga muvofiq tarzida* ifodalanadi. Bu o‘rinda kollokatsion moslik pragmatik moslikning muhim ko‘rsatkichiga aylanadi, chunki kollokatsiya buzilishi matnning uslubiy adekvatligini pasaytiradi hamda noaniqlikka olib kelishi mumkin [Baker, 1992].

Xalqaro iqtisodiy yozishmalar diskurs sifatida ham ekstralingvistik omillar ta‘sirida shakllanadi. Unda kommunikatsiya ishtirokchilarining institutsional maqomi, huquqiy munosabat darajasi, korporativ madaniyat, milliy rasmiyatchilik me‘yorlari va hatto elektron muloqot etiketi (netiquette) muhim rol o‘ynaydi [Fairclough, 1995; van Dijk, 2008]. Shu sababli bunday matnlar tarjimasida pragmatik yondashuv, ya‘ni matnning maqsadi, adresatning kutuvi va kommunikativ vaziyatning rasmiy darajasini hisobga olish tarjima sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [Hatim & Mason, 1997]. Binobarin, iqtisodiy yozishmalar tarjimasida “ma‘noni ko‘chirish” bilan cheklanmay, hujjatning normativ va institutsional funksiyasini tiklash jarayoniga aylanadi [House, 2015].

Xalqaro iqtisodiy yozishmalarni matn tipologiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, ularning funksional tabiatida ikki asosiy yo‘nalish uyg‘unlashgani ko‘zga tashlanadi: bir tomondan, bunday yozishmalar axborot beruvchi (informativ) xarakterga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ularning muayyan qismi ko‘rsatma beruvchi, majburiyat yuklovchi va tartibga soluvchi (direktiv/regulyativ) vazifani bajaradi [Reiss & Vermeer, 1984; Bhatia, 1993]. Binobarin, iqtisodiy yozishmalar nafaqat ma‘lumot almashinuviga xizmat qiladi, balki tomonlarning huquqiy-iqtisodiy munosabatlarini muayyan qoliplar orqali rasmiylashtiradi [Swales, 1990]. Shu jihatdan qaralganda, iqtisodiy yozishmalarning tarjimasida ham matnning faqat mazmunini emas, balki uning institutsional kuchini (ya‘ni huquqiy kuchga ega axborot xususiyatini) saqlashni talab qiladi.

Xalqaro iqtisodiy yozishmalarda nutqiy standartlar yuqori darajada me‘yorlashgan bo‘lib, mazkur me‘yorlashuv, avvalo, hujjatning kompozitsion tuzilishi hamda rasmiy rekvizitlar tizimida aks etadi [Bhatia, 1993]. Masalan, ishbilarmonlik xatlarida murojaat shakli, maqsadni bildiruvchi kirish qoliplari, asosiy mazmunni bayon etuvchi blok, yakuniy iltimos yoki talab, hamkorlikni bildiruvchi yakuniy formulalar va imzo qismi qat‘iy tartibda joylashadi. Shartnoma bandlarida esa ta‘riflar, majburiyatlar, to‘lov shartlari, yetkazib berish, javobgarlik, fors-major, nizolarni

hal etish kabi bo‘limlarning mavjudligi matnning normativligini kuchaytiradi. O‘z navbatida, bunday kompozitsion qat‘iylik tarjimada ham saqlanishi lozim, chunki strukturaviy nomuvofiqlik ko‘pincha mazmuniy noaniqlikni keltirib chiqaradi.

Iqtisodiy yozishmalarda pragmatik maqsadning aniq belgilanishi ko‘pincha modal birliklar va normativ fe‘llar orqali ifodalanadi. Ingliz tilida *shall, must, may, should* kabi modal fe‘llar majburiyat, taqiqlash yoki ruxsat ma‘nosini qat‘iy ajratib beradi [Halliday, 1994]. O‘zbek tilida esa bu ma‘nolar ko‘proq “shart”, “majbur”, “lozim”, “mumkin”, “nazarda tutiladi”, “amalga oshiriladi”, “ta‘minlanadi” kabi birliklar bilan beriladi. Tarjimada modal ma‘no noto‘g‘ri tanlansa, matnning pragmatik yo‘nalishi o‘zgarib ketadi: masalan, majburiyat ruxsatga “yumshab” qolishi yoki aksincha, tavsiya buyruqqa aylanib ketishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy yozishmalar tarjimasida modal semantika ikkilamchi masala emas, balki huquqiy-pragmatik markaz sifatida qaralishi zarur.

Xalqaro iqtisodiy yozishmalarda muhim bo‘lgan yana bir jihat – aniqlik va noaniqlikni boshqarish mexanizmidir. Ingliz tilidagi *we would appreciate, kindly, could you please* kabi muloyimlik (politeness) formulalari iqtisodiy yozishmalarda keng qo‘llanilib, kommunikativ muvozanatni ta‘minlaydi [Brown & Levinson, 1987]. O‘zbek rasmiy uslubida ham “Sizdan ... so‘raymiz”, “Ma‘lum qilamiz”, “Ko‘rib chiqishingizni so‘raymiz”, “Iltimos”, “Hamkorligingiz uchun minnatdorlik bildiramiz” kabi birliklar rasmiy-kommunikativ etiketi ifodalaydi. Bunda tarjimon muloyimlik formulalarini literal tarzda ko‘chirish bilan cheklanmay, maqsadga muvofiq rasmiy ekvivalentni tanlashi lozim, aks holda matnning pragmatik adekvatligi buzilishi va adresat kutuviga mos kelmasligi mumkin.

Iqtisodiy yozishmalarning leksik qatlamida kollokatsiyalar bilan birga, ko‘pincha institutsional qolip iboralar ham yetakchi o‘rin tutadi. Bunday birliklar matnning rasmiylikni mustahkamlaydi va kommunikativ vaqtni tejaydi. Masalan, ingliz tilida *in accordance with, with reference to, pursuant to, hereinafter referred to as, subject to* kabi qolip iboralar hujjatning normativ uslubini belgilaydi; o‘zbek tilida esa “muvofiq ravishda”, “mazkur hujjatga asosan”, “keyingi o‘rinlarda ... deb yuritiladi”, “... sharti bilan”, “ko‘rib chiqish uchun” kabi birliklar shunga mos vazifani bajaradi. Tarjimada bunday qolip iboralarni o‘rinli qo‘llash rasmiy uslubni tiklaydi, biroq ularni noto‘g‘ri yoki haddan tashqari ko‘paytirish matnni sun‘iy va murakkablashtirilgan holga keltirishi mumkin. Demakki, tarjimon qolip iboralarni tanlashda matn janri, kommunikatsiya ishtirokchisining maqomi hamda hujjatning rasmiy uslub darajasini hisobga olishi zarur.

Yuqoridagi nazariy mulohazalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillari misolida xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasini tahlil qilishda uchta tayanch yo‘nalish ajralib turadi: (1) terminologik aniqlik, (2) rasmiy uslub me‘yorlari, (3) pragmatik moslik. Ushbu uch omil o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan birining buzilishi ikkinchisiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois keyingi bo‘limda xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida uchraydigan lingvopragmatik muammolar terminlar, qolip birliklar, modal vositalar va kollokatsiyalar misolida tizimli tahlil qilinadi.

Xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida yuzaga keladigan lingvopragmatik

muammolar, avvalo, ushbu matnlarning institutsional xarakteri va normativ funksiyasi bilan bevosita bog‘liq. Iqtisodiy yozishmalar faqat axborot uzatish vositasi bo‘lib qolmasdan, balki huquqiy majburiyatlarni belgilovchi, tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlar sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois mazkur yozishmalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan har qanday semantik yoki pragmatik nomuvofiqlik hujjatning kommunikativ kuchini pasaytirishi yoki uning talqinida turli tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Lingvopragmatik muammolarning muhim manbalaridan biri terminologik ko‘pma‘nolilik va kontekstual moslik masalasidir. Bundan tashqari, tarjima nazariyasida ekvivalentlik masalasi lingvistik va pragmatik yondashuvlar kesishgan nuqtada shakllangan bo‘lib, uning nazariy asoslari F. de Sossyur, R.Yakobson va Y.Nayda kabi olimlarning tadqiqotlariga borib taqaladi. Xususan, F. de Sossyur tomonidan ilgari surilgan “langue” va “parole” farqi til tizimi va uning real qo‘llanishi o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatib beradi, bu esa tarjimada ma‘no uzatish jarayonini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. R.Yakobson esa ekvivalentlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri til birliklari darajasida emas, balki ma‘no darajasida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qiladi. Y.Nayda esa ekvivalentlikni qabul qiluvchi auditoriyaga ta‘sir nuqtayi nazaridan baholab, “dinamik ekvivalentlik” tushunchasini ilgari suradi. Ushbu nazariy yondashuvlar tarjimada faqat formal moslik emas, balki pragmatik adekvatlikni ham ta‘minlash zarurligini ko‘rsatadi [Rakhimov, 2023]. Iqtisodiy yozishmalarda qo‘llaniladigan ko‘plab terminlar umumtil leksemalari bilan formal jihatdan bir xil bo‘lsa-da, professional diskurs doirasida tor va aniq ma‘noga ega bo‘ladi. Masalan, ingliz tilidagi *consideration, performance, facility, charge* kabi birliklar umumiy nutqda keng semantik maydonga ega bo‘lsa, shartnomaviy va iqtisodiy matnlarda ular qat‘iy normativ ma‘noni ifodalaydi. O‘zbek tiliga tarjimada ushbu birliklarni umumiy lug‘aviy ekvivalentlar orqali berish matnning pragmatik aniqligini buzishi mumkin. Shu sababli tarjimon terminning diskursiv maqomini aniqlashi va uni iqtisodiy yozishmalar kontekstiga mos ravishda talqin qilishi zarur.

Tarjimada uchraydigan yana bir muhim muammo rasmiy nutq qoliplarining pragmatik moslashuvi bilan bog‘liq. Ingliz iqtisodiy yozishmalarida keng qo‘llaniladigan standart iboralar ko‘pincha bevosita tarjima qilinmaydi, balki funksional ekvivalentlar orqali ifodalanadi. Masalan, *This agreement shall enter into force* kabi konstruksiyani o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z ko‘chirishdan ko‘ra, *Mazkur shartnoma kuchga kiradi* yoki *Mazkur shartnoma amalga kiradi* tarzida berish rasmiy uslub me‘yorlariga muvofiqroq bo‘ladi. Bunday hollarda tarjimonning asosiy vazifasi shaklni emas, balki hujjatning normativ-pragmatik vazifasini tiklashdan iborat.

Modal birliklarning tarjimasi ham lingvopragmatik muammolarni yuzaga keltiruvchi muhim omillardan biridir. Yuqorida ta‘kidlanganidek, ingliz tilidagi *shall, must, may* kabi modal fe‘llar majburiyat va ruxsat darajasini aniq belgilaydi. O‘zbek tilida esa mazkur darajalar ko‘proq kontekst, fe‘l shakli va rasmiy klisheilar orqali ifodalanadi. Tarjimada modal birlikning kuchini noto‘g‘ri baholash natijasida matnning huquqiy ta‘sir kuchi o‘zgarishi mumkin. Shu bois iqtisodiy yozishmalar tarjimasida modal semantikani kontekstual-pragmatik tahlil asosida tanlash muhim

hisoblanadi.

Lingvopragmatik muammolarning yana bir muhim jihati muloyimlik va institutsional etiket bilan bog‘liq. Xalqaro iqtisodiy yozishmalar, ayniqsa, ishbilarmonlik xatlari va rasmiy elektron yozishmalar, qat‘iy rasmiylik bilan birga, muayyan diplomatik ohangni ham saqlashni talab qiladi. Ingliz tilidagi *we kindly request, we would appreciate, please be advised* kabi formulalar o‘zbek tilida har doim ham so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi. Bunday birliklarni *Sizdan ... so‘raymiz, Ma‘lum qilamiz, E‘tiboringizga havola etamiz* kabi rasmiy muqobillar orqali berish kommunikativ muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida yuzaga keladigan lingvopragmatik muammolar tizimli xarakterga ega bo‘lib, ular terminologiya, rasmiy nutq qoliplari, modal birliklar va institutsional etiket bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli ushbu muammolarni aniqlash va tahlil qilish tarjima jarayonini ilmiy asosda takomillashtirish uchun zarur shart hisoblanadi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasining lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi iqtisodiy diskursning o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy tahlil qilish maqsadida kompleks tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi lingvistik, pragmatik va tarjimashunoslik yondashuvlarining o‘zaro uyg‘unligiga asoslandi.

Avvalo, tavsifiy metod asosida xalqaro iqtisodiy yozishmalarga xos bo‘lgan til birliklari tizimlashtirildi va tavsiflandi. Ushbu metod yordamida ishbilarmonlik xatlari, shartnomaviy hujjatlar hamda rasmiy elektron yozishmalarda uchraydigan iqtisodiy terminlar, rasmiy nutq qoliplari, kollokatsiyalar, modal vositalar va formulaik birliklarning lingvistik xususiyatlari aniqlandi. Shuningdek, mazkur birliklarning iqtisodiy diskursdagi funksional yuklamasi hamda qo‘llanish chastotasi tavsifiy jihatdan yoritildi.

Qiyosiy-tipologik (chog‘ishtirma) metod orqali ingliz va o‘zbek tillaridagi xalqaro iqtisodiy yozishmalar o‘zaro taqqoslandi. Bunda terminologik birliklar, rasmiy nutq konstruksiyalari, modal vositalar, kollokatsiyalar hamda institutsional etiket formulalarining ifodalanishidagi o‘xshash va farqli jihatlar tahlil qilindi. Mazkur metod ikki til tizimi o‘rtasidagi struktur-semantik tafovutlarni aniqlash, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik muammolarni belgilash imkonini berdi.

Lingvopragmatik tahlil metodi tadqiqotning asosiy metodlaridan biri sifatida qo‘llanildi. Ushbu metod asosida iqtisodiy yozishmalar matnlarida til birliklarining kommunikativ maqsadni ifodalashdagi roli, nutq aktlarining amalga oshirilish mexanizmlari, adresatga yo‘naltirilganlik darajasi hamda institutsional kommunikatsiyaning pragmatik omillari o‘rganildi. Xususan, iltimos qilish, talab qo‘yish, ogohlantirish, majburiyat yuklash va tavsiya bildirish kabi pragmatik funksiyalarning ingliz va o‘zbek tillarida qanday ifodalanishi hamda tarjimada ularning qay darajada saqlanishi tahlil qilindi.

Bundan tashqari, semantik-funksional tahlil metodi yordamida iqtisodiy yozishmalarda qo‘llaniladigan terminologik birliklar, modal fe‘llar, barqaror birikmalar va formulaik ifodalarning tarjima jarayonidagi ekvivalentlik darajasi baholandi. Tahlil jarayonida til birliklarining lug‘aviy ma‘nosi bilan bir qatorda ularning funksional-pragmatik qiymati ham hisobga olinib, tarjimada pragmatik moslikni ta‘minlashga xizmat qiluvchi strategiyalar aniqlandi.

Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilidagi ishbilarmonlik xatlari, shartnomalar, rasmiy elektron yozishmalar hamda iqtisodiy hujjatlardan olingan namunalar tanlab olindi. Mazkur matnlar o‘zbek tilidagi tarjimalari bilan qiyosiy tahlil qilinib, terminologik aniqlik, rasmiy uslubning saqlanishi, modal ma‘nolarning ifodalanishi, kollokatsion moslik va institutsional etiket formulalarining tarjimada aks etish xususiyatlari o‘rganildi. Tahlil natijasida xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida uchraydigan asosiy lingvopragmatik muammolar hamda ularni bartaraf etishda qo‘llaniladigan funksional-pragmatik strategiyalar belgilab berildi.

NATIJALAR

Tahlil materiali sifatida ishbilarmonlik xatlari, shartnoma bandlari hamda rasmiy elektron yozishmalardan olingan namunalar tanlandi. Ushbu misollar orqali terminologik aniqlik, rasmiy nutq qoliplari va pragmatik maqsadning tarjimada ifodalanish xususiyatlari ko‘rib chiqildi.

1-misol. Terminologik birliklarning tarjimasini

Inglizcha matn:

The Buyer shall be liable for any delay in payment beyond the agreed deadline.

O‘zbekcha tarjima:

Xaridor kelishilgan muddatdan kechiktirilgan har qanday to‘lov uchun javobgar bo‘ladi.

Mazkur misolda *liable* terminining tarjimasini alohida e‘tiborni talab qiladi. Ushbu birlik umumiy nutqda “mas‘ul bo‘lish” yoki “bog‘liq bo‘lish” ma‘nolarini ifodalashi mumkin bo‘lsa-da, iqtisodiy va shartnomaviy diskursda u qat‘iy huquqiy majburiyatni bildiradi. O‘zbek tilida “javobgar bo‘ladi” shaklida berilishi matnning normativ-pragmatik mazmunini to‘liq saqlab qolishga xizmat qiladi. Shuningdek, shall modal fe‘lining o‘zbek tilida alohida modal birlik bilan emas, balki fe‘ning rasmiy kelasi zamon shakli orqali berilishi rasmiy uslub me‘yorlariga mos keladi.

2-misol. Rasmiy nutq qoliplarining tarjimasini

Inglizcha matn:

This agreement shall enter into force upon signing by both parties.

O‘zbekcha tarjima:

Mazkur shartnoma tomonlar tomonidan imzolangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Ushbu misolda ingliz tilidagi standart rasmiy qolip *shall enter into force* o‘zbek tilida funksional ekvivalent orqali ifodalangan. So‘zma-so‘z tarjima (kuchga kirishni boshlaydi) o‘rniga rasmiy hujjatlar tiliga xos bo‘lgan “kuchga kiradi” birikmasining qo‘llanishi pragmatik moslikni ta‘minlaydi. Bundan tashqari, “upon

signing” birikmasining imzolangan kundan e’tiboran tarzida tarjima qilinishi vaqt chegarasining huquqiy aniqligini kuchaytiradi.

3-misol. Muloyimlik va institutsional etiket

Inglizcha matn:

We would appreciate it if you could provide the requested documents at your earliest convenience.

O‘zbekcha tarjima:

Sizdan so‘ralgan hujjatlarni imkon qadar tezroq taqdim etishingizni so‘raymiz.

Mazkur misolda ingliz tiliga xos diplomatik muloyimlik formulasi (we would appreciate it if...) o‘zbek rasmiy uslubiga mos ravishda ixcham va neytral shaklda ifodalangan. Bu holatda so‘zma-so‘z tarjima rasmiylikni sun’iy oshirishi yoki nutqni og‘irlashtirishi mumkin edi. Taklif etilgan tarjima esa muomala madaniyatini saqlagan holda pragmatik maqsadni to‘liq yetkazadi.

4-misol. Kollokatsion moslik masalasi

Inglizcha matn:

The company failed to meet its contractual obligations.

O‘zbekcha tarjima:

Kompaniya shartnomaviy majburiyatlarini bajarmadi.

Bu misolda “to meet obligations” kollokatsiyasi o‘zbek tilidagi majburiyatlarni bajarish birikmasi orqali ifodalangan. Kollokatsion moslikning saqlanishi rasmiy matnning tabiiyligini va normativligini ta’minlaydi. Agar ushbu birlik noto‘g‘ri tarjima qilinsa (masalan, majburiyatlarga javob bermadi), matnning huquqiy ohangi zaiflashishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollar tahlili xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida lingvopragmatik moslikni ta’minlash ko‘p omilli jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Tahlil qilingan namunalarda terminologik birliklarning semantik aniqligini saqlash, rasmiy nutq qoliplarining funksional muqobillarini tanlash hamda institutsional etiket formulalarini adresat kutuvlariga mos ravishda ifodalash tarjima adekvatligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, iqtisodiy yozishmalarda qo‘llaniladigan har bir til birligi nafaqat nominativ, balki muayyan huquqiy va kommunikativ vazifani ham bajarishi aniqlandi. Binobarin, tarjima jarayonida qabul qilinadigan har bir qaror matnning institutsional mazmuni va pragmatik maqsadini saqlashga qaratilishi lozim.

Ingliz-o‘zbek xalqaro iqtisodiy yozishmalari tarjimasida bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tarjimon faoliyati faqat lug‘aviy ekvivalentlarni tanlash bilan cheklanmaydi. Aksincha, u matnning janriy xususiyatlari, rasmiylik darajasi, kommunikativ vaziyati hamda adresat omilini hisobga olgan holda funksional jihatdan maqbul variantni tanlashi zarur. Terminologik birliklar, modal vositalar, formulaik iboralar va kollokatsiyalar iqtisodiy yozishmalar tarkibida o‘zaro uzviy bog‘liq holda qo‘llanilib, hujjatning huquqiy-axborot mazmunini shakllantiradi. Mazkur birliklardan birining noto‘g‘ri talqin qilinishi matnning umumiy pragmatik yo‘nalishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz tilidagi iqtisodiy yozishmalar yuqori darajadagi

standartlashganligi bilan tavsiflanadi. Xususan, shartnomaviy bandlar va ishbilarmonlik xatlarida muayyan sintaktik konstruksiyalar, rasmiy-klishé birliklar hamda turg'un nutq formulalarining muntazam qo'llanishi kuzatildi. O'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu qoliplarni so'zma-so'z ko'chirish har doim ham rasmiy uslub talablariga mos kelmasligi aniqlandi. Aksincha, ularning funksional ekvivalentlarini tanlash matnning tabiiyligi, uslubiy yaxlitligi va kommunikativ samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu holat iqtisodiy yozishmalar tarjimasida funksional-pragmatik yondashuvning ustuvorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, misollar tahlili modal birliklar tarjimasida lingvopragmatik jihatdan eng mas'uliyatli jihatlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Ingliz tilidagi shall, must, may kabi modal fe'llar iqtisodiy matnlarda majburiyat, ruxsat yoki cheklov darajasini aniq belgilab bersa, o'zbek tilida ushbu ma'nolar turli grammatik shakllar, rasmiy fe'l konstruksiyalari va leksik vositalar orqali ifodalanadi. Shu sababli modal ma'noni noto'g'ri talqin qilish hujjatning normativ mazmuni va huquqiy talqiniga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, iqtisodiy yozishmalar tarjimasida modal vositalarning pragmatik yuklamasini saqlash tarjimonning nafaqat til kompetensiyasini, balki iqtisodiy-huquqiy diskurs bo'yicha kasbiy tayyorgarligini ham talab etadi.

MUNOZARA

Olingan natijalar xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida lingvopragmatik yondashuvning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy yozishmalar tarjimasida matnning mazmunini bir tildan ikkinchi tilga ko'chirishning o'zi yetarli bo'lmay, uning kommunikativ maqsadi, institutsional vazifasi hamda adresatga ko'rsatadigan pragmatik ta'sirini ham saqlab qolish zarur hisoblanadi. Bu jihat J.Haus, B.Xatim va I.Meysonlarning tarjimada funksional-pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash haqidagi qarashlari bilan hamohangdir. Mazkur yondashuvga ko'ra, tarjima sifati matnning formal mosligi bilan emas, balki qabul qiluvchi auditoriyada asl matnga yaqin kommunikativ samara hosil qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillarining struktur hamda diskursiv xususiyatlari pragmatik ma'noni ifodalashda turlicha vositalardan foydalanishini ko'rsatdi. Ingliz tilidagi iqtisodiy yozishmalarda pragmatik maqsad ko'proq grammatik va sintaktik vositalar, xususan, modal fe'llar, passiv konstruksiyalar va standartlashtirilgan formulaik birliklar orqali ifodalansa, o'zbek tilida ushbu vazifa asosan leksik vositalar, rasmiy fe'l shakllari hamda milliy rasmiy uslubga xos qolip iboralar yordamida amalga oshiriladi. Bu holat tarjimada formal ekvivalentlikdan ko'ra funksional moslikni ta'minlash muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Aks holda, matnning pragmatik yo'nalishi o'zgarib, uning huquqiy va kommunikativ kuchi pasayishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tarjimada uchraydigan xatolarning asosiy qismi so'zma-so'z tarjimaga ortiqcha tayanish natijasida yuzaga keladi. Ayniqsa, shartnomaviy hujjatlar va rasmiy ishbilarmonlik yozishmalarida qo'llaniladigan standart qoliplarning literal tarjimasida o'zbek rasmiy uslubiga xos me'yorlarning

buzilishiga olib kelishi mumkin. Natijada matnning tabiiyligi yo'qoladi, ayrim hollarda esa uning huquqiy talqini ham o'zgarib ketadi. Shu sababli iqtisodiy yozishmalar tarjimasida funksional ekvivalentlarni tanlash, rasmiy kommunikatsiya an'alarini hisobga olish hamda adresat kutuvlariga moslashish tarjimonning muhim kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, terminologik birliklarning noto'g'ri tanlanishi yoki kollokatsion moslikning buzilishi matnning uslubiy va kommunikativ aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Iqtisodiy terminlar ko'pincha umumiste'mol leksikasiga mansub birliklar bilan shaklan o'xshash bo'lsa-da, professional diskursda ular tor va qat'iy ma'noni ifodalaydi. Shu bois tarjimada terminning semantik hajmi, qo'llanish sohasi, hujjat janri hamda matnning pragmatik maqsadini hisobga olish zarur. Kollokatsion birliklarni noto'g'ri tanlash esa matnning rasmiy ohangini zaiflashtirib, uning institutsional xususiyatiga putur yetkazishi mumkin.

Munozara natijalari iqtisodiy yozishmalarda pragmatik va formulaik nutq birliklarining alohida o'rin tutishini ham ko'rsatdi. Bunday birliklar rasmiy nutqning diplomatik ohangini shakllantiradi, kommunikatsiya ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy masofani tartibga soladi hamda hamkorlik munosabatlarining muvozanatini ta'minlaydi. Ingliz tilidagi muloyimlik formulalari va institutsional etiket vositalarining o'zbek tiliga mos ravishda funksional jihatdan adekvat ifodalanishi kommunikativ muvaffaqiyatning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ularni so'zma-so'z yoki haddan tashqari erkin talqin qilish esa matnning pragmatik adekvatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, olingan natijalar xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida lingvopragmatik yondashuvni qo'llash tarjima sifatini oshirish, hujjatlarning normativ va kommunikativ funksiyasini saqlab qolish hamda xalqaro iqtisodiy muloqot samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu nuqtayi nazardan, iqtisodiy matnlar bilan ishlovchi tarjimonlarni tayyorlash jarayonida lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish, rasmiy diskurs me'yorlari va iqtisodiy terminologiya bo'yicha maxsus ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv nafaqat amaliy tarjimashunoslikni takomillashtirishga, balki xalqaro iqtisodiy hamkorlik jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kommunikativ va huquqiy xatolarning oldini olishga ham xizmat qiladi.

XULOSA

Ingliz va o'zbek tillari misolida xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasining lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish mazkur jarayonning murakkab va ko'p qirrali tabiatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida xalqaro iqtisodiy yozishmalar faqat axborot almashish vositasi emas, balki muayyan huquqiy, iqtisodiy va institutsional munosabatlarni tartibga soluvchi kommunikativ hodisa ekanligi aniqlandi. Shu sababli bunday matnlarni tarjima qilishda ularning nafaqat mazmuniy, balki funksional va pragmatik xususiyatlarini ham saqlab qolish zarur hisoblanadi.

Tahlillar natijasida iqtisodiy yozishmalar tarjimasining samaradorligi, avvalo, terminologik aniqlik, rasmiy uslub me'yorlariga rioya qilish hamda pragmatik

moslikni ta'minlash bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. Xususan, iqtisodiy terminlarning kontekstual ma'nosini to'g'ri anglash, barqaror birikmalar va rasmiy nutq qoliplarining funksional ekvivalentlarini tanlash, modal birliklarning huquqiy-pragmatik yuklamasini saqlab qolish tarjima sifatini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Mazkur omillardan birining e'tibordan chetda qolishi matnning kommunikativ samaradorligi pasayishiga, ayrim hollarda esa uning huquqiy talqinida noaniqliklarning yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi xalqaro iqtisodiy yozishmalarda pragmatik maqsad ko'proq modal fe'llar, standart sintaktik konstruksiyalar hamda yuqori darajada me'yorlashgan formulaik birliklar vositasida ifodalansa, o'zbek tilida ushbu vazifa asosan leksik vositalar, rasmiy fe'l shakllari va milliy rasmiy uslubga xos qolip iboralar orqali amalga oshiriladi. Ushbu farqlar tarjima jarayonida formal ekvivalentlikka tayanish yetarli emasligini, aksincha, matnning kommunikativ vazifasi va adresat kutuvlarini hisobga oluvchi funksional-pragmatik yondashuvni qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida so'zma-so'z tarjima usuliga ortiqcha tayanish terminologik xatolar, kollokatsion nomuvofiqliklar va pragmatik maqsadning buzilishiga sabab bo'lishi mumkinligi aniqlandi. Shu bois tarjimon iqtisodiy diskursning o'ziga xos xususiyatlari, rasmiy kommunikatsiya me'yorlari hamda institutsional etiket qoidalarini chuqur bilishi, tarjima jarayonida esa matnning normativ va kommunikativ funksiyasini tiklashga yo'naltirilgan strategiyalardan foydalanishi lozim.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillaridagi xalqaro iqtisodiy yozishmalar tarjimasida pragmatik moslikni ta'minlashning lingvistik mexanizmlarini aniqlash hamda ularni tizimli ravishda tavsiflash bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy matnlar tarjimasini nazariyasini boyitishga, lingvopragmatik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga hamda rasmiy iqtisodiy diskursning tarjimashunoslikdagi o'rnini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Mazkur ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan xulosalar va tavsiyalar xalqaro iqtisodiy yozishmalar bilan ishlovchi tarjimonlar, iqtisodiy tashkilotlar mutaxassisleri hamda rasmiy hujjatlar tarjimasini bilan shug'ullanuvchi amaliyotchilar faoliyatida foydalanilishi mumkin. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarjima va maxsus maqsadlar uchun tarjima fanlarini o'qitishda, o'quv-uslubiy qo'llanmalar hamda amaliy mashg'ulot materiallarini takomillashtirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda xalqaro iqtisodiy yozishmalarni korpus lingvistikasi asosida o'rganish, turli tillardagi iqtisodiy diskursning lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish hamda sun'iy intellekt yordamida amalga oshirilayotgan iqtisodiy tarjimalarning lingvopragmatik adekvatligini baholash istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov, A. (2010). *Sotsiolingvistika asoslari*. Toshkent: Fan.
2. Abdullayeva, Sh. (2025). Iqtisodiy terminologiya va sinonimiya masalalari. *Philology Matters*, 52(1).
3. Adolphs, S., & Carter, R. (2007). *Corpus and context: Investigating pragmatic functions in spoken discourse*. Amsterdam: John Benjamins.
4. Anderson, P.V. (2006). *Technical communication: A reader-centered approach*. Boston: Thomson.
5. Apalat, G. (1999). *Business communication*. Moscow: INFRA-M.
6. Austin, J.L. (1962). *How to do things with words*. Oxford: Oxford University Press.
7. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. London: Routledge.
8. Bhatia, V.K. (1993). *Analysing genre: Language use in professional settings*. London: Longman.
9. Bondi, M. (2010). *Discourse in business and economics*. Bern: Peter Lang.
10. Brown, P., & Levinson, S.C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Fairclough, N. (1995). *Critical discourse analysis*. London: Longman.
12. Guryeva, Z. (2003). *Language for specific purposes*. Moscow: Nauka.
13. Halliday, M.A.K. (1994). *An introduction to functional grammar* (2nd ed.). London: Arnold.
14. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as communicator*. London: Routledge.
15. House, J. (1997). *Translation quality assessment: A model revisited*. Tübingen: Gunter Narr Verlag.
16. House, J. (2015). *Translation quality assessment: Past and present*. London: Routledge.
17. International Organization for Standardization. (2023). *ISO 24495-1:2023. Plain language—Part 1: Governing principles and guidelines*. Geneva: ISO.
18. Cabré, M.T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. Amsterdam: John Benjamins.
19. Kazakova, T.A. (2012). *Translation theory: Linguistic and pragmatic aspects*. Saint Petersburg: Soyuz.
20. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of the English language* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
21. Kunin, A.V. (2005). *English phraseology*. Moscow: Vysshaya shkola.
22. Moon, R. (1998). *Fixed expressions and idioms in English: A corpus-based approach*. Oxford: Oxford University Press.
23. Munday, J. (2016). *Introducing translation studies: Theories and applications* (4th ed.). London: Routledge.
24. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. London: Prentice Hall.
25. Nord, C. (1997). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained*. Manchester: St. Jerome.
26. O'Halloran, K. (1999). *Mathematical discourse*. London: Continuum.
27. Rakhimov, G. (2023). *Roots of equivalence theory in translation: From Saussure to Nida*. Tashkent: UzSWLU.
28. Reiss, K., & Vermeer, H.J. (1984). *Groundwork for a general theory of translation*. Tübingen: Niemeyer.
29. Safina, L.R. (2002). *Economic terminology and translation issues*. Kazan: University Press.
30. Saussure, F. de. (2000). *Course in general linguistics*. Toshkent: Fan.
31. Searle, J.R. (1969). *Speech acts*. Cambridge: Cambridge University Press.
32. Sinclair, J. (1991). *Corpus, concordance, collocation*. Oxford: Oxford University Press.
33. Skandera, P. (2007). *Phraseology and culture in English*. Berlin: Mouton de Gruyter.
34. Swales, J.M. (1990). *Genre analysis: English in academic and research settings*. Cambridge: Cambridge University Press.
35. Taylor, C. (2002). *Language to language: A practical and theoretical guide for translation*.

- Cambridge: Cambridge University Press.
36. van Dijk, T.A. (2008). *Discourse and power*. London: Palgrave Macmillan.
 37. Vereshchagin, Y.M., & Kostomarov, V.G. (1990). *Language and culture*. Moscow: Russkiy Yazyk.
 38. Shekina, I.A. (2001). *Pragmatics of economic discourse*. Moscow: Nauka.

REFERENCES

1. Abduazizov, A. (2010). *Fundamentals of sociolinguistics*. Tashkent: Science Publishing House.
2. Abdullayeva, Sh. (2025). Issues of economic terminology and synonymy. *Philology Matters*, 52(1).
3. Adolphs, S., & Carter, R. (2007). *Corpus and context: Investigating pragmatic functions in spoken discourse*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
4. Anderson, P.V. (2006). *Technical communication: A reader-centered approach*. Boston: Thomson.
5. Apalat, G. (1999). *Business communication*. Moscow: INFRA-M Publishing House.
6. Austin, J.L. (1962). *How to do things with words*. Oxford: Oxford University Press.
7. Baker, M. (1992). *In other words: A coursebook on translation*. London: Routledge.
8. Bhatia, V.K. (1993). *Analysing genre: Language use in professional settings*. London: Longman.
9. Bondi, M. (2010). *Discourse in business and economics*. Bern: Peter Lang.
10. Brown, P., & Levinson, S.C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Cabré, M.T. (1999). *Terminology: Theory, methods and applications*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company.
12. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of the English language* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
13. Fairclough, N. (1995). *Critical discourse analysis*. London: Longman.
14. Guryeva, Z. (2003). *Language for specific purposes*. Moscow: Science Publishing House.
15. Halliday, M.A.K. (1994). *An introduction to functional grammar* (2nd ed.). London: Arnold.
16. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as communicator*. London: Routledge.
17. House, J. (1997). *Translation quality assessment: A model revisited*. Tübingen: Gunter Narr Publishing House.
18. House, J. (2015). *Translation quality assessment: Past and present*. London: Routledge.
19. International Organization for Standardization. (2023). *ISO 24495-1:2023. Plain language—Part 1: Governing principles and guidelines*. Geneva: International Organization for Standardization.
20. Kazakova, T.A. (2012). *Translation theory: Linguistic and pragmatic aspects*. Saint Petersburg: Union Publishing House.
21. Kunin, A.V. (2005). *English phraseology*. Moscow: Higher School Publishing House.
22. Moon, R. (1998). *Fixed expressions and idioms in English: A corpus-based approach*. Oxford: Oxford University Press.
23. Munday, J. (2016). *Introducing translation studies: Theories and applications* (4th ed.). London: Routledge.
24. Newmark, P. (1988). *A textbook of translation*. London: Prentice Hall.
25. Nord, C. (1997). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained*. Manchester: St. Jerome Publishing.
26. O'Halloran, K. (1999). *Mathematical discourse*. London: Continuum.
27. Rakhimov, G. (2023). *Roots of equivalence theory in translation: From Saussure to Nida*. Tashkent: Uzbekistan State World Languages University Press.
28. Reiss, K., & Vermeer, H.J. (1984). *Groundwork for a general theory of translation*. Tübingen: Niemeyer Publishing House.

29. Safina, L.R. (2002). *Economic terminology and translation issues*. Kazan: University Press.
30. Saussure, F.de. (2000). *Course in general linguistics*. Tashkent: Science Publishing House.
31. Searle, J.R. (1969). *Speech acts*. Cambridge: Cambridge University Press.
32. Shekina, I.A. (2001). *Pragmatics of economic discourse*. Moscow: Science Publishing House.
33. Sinclair, J. (1991). *Corpus, concordance, collocation*. Oxford: Oxford University Press.
34. Skandera, P. (2007). *Phraseology and culture in English*. Berlin: Mouton de Gruyter.
35. Swales, J.M. (1990). *Genre analysis: English in academic and research settings*. Cambridge: Cambridge University Press.
36. Taylor, C. (2002). *Language to language: A practical and theoretical guide for translation*. Cambridge: Cambridge University Press.
37. van Dijk, T.A. (2008). *Discourse and power*. London: Palgrave Macmillan.
38. Vereshchagin, Y.M., & Kostomarov, V.G. (1990). *Language and culture*. Moscow: Russian Language Publishing House.